

O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA ICHKI TURIZMNI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Nuriddinova Niginabegim Fazliddin qizi

BuxDU, Iqtisodiyot va turizm fakulteti magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14674596>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda ichki turizmni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Mamlakatning boy tarixiy merosi, geografik xilma-xilligi va milliy qadriyatlari ichki turizmni rivojlantirish uchun ko'pgina imkoniyatlar yaratadi. Shuningdek, maqolada xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, marketing strategiyalarini oshirish hamda ularni takomillashtirish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: turizm, strategiya, turistlar, qadimiy obidalar, turistik shaharlar, investitsiya.

SPECIFIC FEATURES OF THE FORMATION OF DOMESTIC TOURISM IN THE REGIONS OF UZBEKISTAN

Abstract. This article analyzes the specific features of the formation of domestic tourism in Uzbekistan. The country's rich historical heritage, geographical diversity and national values create many opportunities for the development of domestic tourism. The article also provides proposals for improving the quality of service, improving marketing strategies and improving them.

Keywords: tourism, strategy, tourists, ancient monuments, tourist cities, investment.

ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ВНУТРЕННЕГО ТУРИЗМА В РЕГИОНАХ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. В данной статье анализируются особенности формирования внутреннего туризма в Узбекистане. Богатое историческое наследие страны, географическое разнообразие и национальные ценности создают множество возможностей для развития внутреннего туризма. Также в статье представлены предложения по повышению качества обслуживания, совершенствованию маркетинговых стратегий и их совершенствованию.

Ключевые слова: туризм, стратегия, туристы, памятники старины, туристические города, инвестиции.

Ichki turizm-bu muayyan mamlakat fuqarolari o'z yashash hududi ichida, ya'ni mamlakat chegaralaridan chiqmasdan, turistik maqsadlarda sayohat qilishidir. Ichki turizm davlat chegaralari bosib o'tilmaydi. Shuningdek, milliy valyuta, til, hujjatlar oldingidek o'zgarmasdan qoladi¹. Ichki turizm insonlar qisqa yoki uzoq muddatda dam olishni, tarixiy obidalarni ziyorat qilish, sport yoki boshqa faoliyat bilan shug'ullanish kabi maqsadlarda o'z mamlakatlari bo'ylab sayohat qilishadi. Mamlakatda ichki turizmni tashkil qiluvchi jismoniy va yuridik shaxslar tegishli ruxsatnomaga ega bo'lishlari kerak. Ichki turizm mavsumiy hisoblanadi va ko'p hollarda tabiatga sayohat bahor, yoz va kuz oylarida amalga oshiriladi. Ayrim turistik ekskursiyalar aynan manzarani tomosha qilish uchun, tabiat qo'ynida dam olish uchun rejalashtiriladi. Ichki turizm sayohat uchun eng qulay vaqt bahor va yoz oylari hisoblanadi. Ichki turizmning o'ziga xos xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

1. *Ichki turizmning iqtisodiyotdagi salmog'ining o'sishi*
2. *Aholini ish bilan ta'minlash darajasining o'sishi*
3. *Chekka hududlarda ham turizm infratuzilmasini yaratish*
4. *Qishloq turizmini rivojlantirish*
5. *Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish*
6. *Hududiy turistik brendlarni shakllantirish²*

Ichki turizm iqtisodiyotda ko'pgina tarmoqlarning rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Jumladan, transport, aloqa tarmoqlari, yo'l, mehmonxona, ovqatlanish joylari, savdo-sotiq, kommunal xo'jaligi, hunarmandchilik, bozor infratuzilmasi kabi muhim sohalarga.

Yurtimizda, yangi ko'ngilochar maskalanlarni tashkil qilish, bog'lar yaratish, qishloq joylarida turizmni rivojlantirish, servis xizmat ko'rsatish majmualarini barpo etish borasida qilinayotgan ishlar aholimizning ko'pgina qismini sayohat qilishga undamoqda. Ichki turizmning rivojlanishi avvalambor, mahalliy aholi uchun katta foyda keltiradi. Xususan jamiyatning, fikrlash doirasini kengaytiradi, ma'naviy boyligini oshiradi, an'ana va qadriyatlarni tiklaydi, aholi doimiy daromad olib turish imkoniyatiga ega bo'ladi hamda mehmon kutishning o'ziga xos an'analarni rivojlantirib boradilar. Shuningdek, turizmni rivojlantirish atrof-muhitga ham katta foyda keltiradi, ya'ni bioxilmaxillik asl holida saqlashga harakat qilinadi, ekologik barqarorlikni ta'minlash tadbirlari qo'llaniladi va tabiat resurslaridan mehmonlar ham birdek bahramand bo'lishadi.

¹ <https://uz.wikipedia.org>

² <https://uz.travel/uz/hamma-uchun-turizm?utm>

Ta'kidlash joiz, ichki turizmning rivojlanishi iqtisodiyotni faollashtiradi, mehnatga layoqatli aholini ishga jalb qiladi, xodimlarning malakasini oshirishga yordam beradi.

O'zbekistonda ichki turizmni shakllantirish jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib bu mamlakatning tarixiy, madaniy, geografik va iqtisodiy sharoitlari bilan bog'liq. Mamlakatimiz dunyoga mashhur tarixiy shaharlari va madaniy merosi bilan ichki turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega. Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlarining qadimiy yodgorliklari ichki sayyohlarni jalb qilishda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirish bo'yicha quyidagi takliflarni keltirish mumkin.

Ushbu takliflar mamlakatning boy tarixiy-madaniy merosi, geografik imkoniyatlari va zamonaviy turizm tendensiyalariga asoslanadi:

1. *Yo'l va transport tarmoqlarini yaxshilash: Chekka hududlardagi sayyohlik maskanlariga borish uchun qulay yo'llar qurish va jamoat transportlarini tashkil qilish*
2. *Turistik zonalarini tashkil etish: Qishloq hududlarida, tog'li joylarda maxsus turistik hududlarni yanada rivojlantirish.*
3. *Turar joylarni kengaytirish: Qulay va arzon mehmonxonalar, oilaviy uylar va ekologik maskanlarni ko'paytirish.*
4. *Marketing va axborot texnologiyalaridan foydalanish³*
5. *Ichki turizm platformalarini yaratish: O'zbekiston ichidagi turistik yo'nalishlar va xizmatlar haqida ma'lumot beruvchi mobil ilovalar va veb-saytlarni rivojlantirish.*
6. *Ijtimoiy tarmoqlar orqali targ'ibot: Mahalliy blogerlar va interenet orqali ichki turizmni ommalashtirish.*
7. *Madaniy va tarixiy obidalarini targ'ib qilish*
8. *Ta'mirlash va saqlash: Tarixiy yodgorliklarni restavratsiya qilish va saqlab qolish.*
9. *Ma'daniy yo'nalishlar: Har bir hudud uchun maxsus tarixiy va madaniy yo'nalishlarni ishlab chiqish*
10. *Ekoturizm va tog' turizmini rivojlantirish*
11. *Dam olish mavzumini kengaytirish: Faqat yozgi mavsum bilan cheklanib qolmay, qishki turizmni ham rivojlantirish*
12. *Narxlarni pasaytirish: Mahalliy aholi uchun maxsus paketlar yaratish va chegirmalar taklif qilish.*

³ <https://interconf.org/www.slovenia>

13. *Mutaxassislarni tayyorlash: Turizm sohasi uchun gidlar, mehmonxona xodimlari va boshqa xizmat ko'rsatuvchi kadrlarni tayyorlash.*

14. *Mahalliy tillarni o'rgatish: Chet tillarini o'rgatish dasturlarini tashkil etish.*

Ichki turizmni rivojlantirish bo'yicha yuqoridagi takliflarni amalga oshirish O'zbekistonda turizm sohasini yanada rivojlantiradi, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi.

Yangi O'zbekiston sharoitida turizm sohasini rivojlantirish mamlakatimizning turizm sohasidagi ulkan salohiyatidan samarali foydalanishga qaratilgan chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "O'zbekiston-2030" strategiyasida turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan bir qancha maqsad va vazifalar belgilangan. Jumladan 2030-yilga qadar xorijiy sayyohlar sonini 15 million nafarga, ichki sayyohlar sonini 25 million nafarga, ziyorat turizmi bo'yicha keladigan sayyohlar sonini 3 million nafarga yetkazish ko'zda tutilgan. Shuningdek, xususiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga respublikada mehmonlar uchun mo'ljallangan o'rinlar sonini kamida 2 barobar oshirish, turizm mahallalari sonini 175 taga, turizm xizmatlari eksportini 5 milliard dollarga yetkazish belgilangan.⁴

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O'zbekistonda ichki turizmni shakllantirish mamlakatning boy tarixiy-madaniy merosi, geografik imkoniyatlari va milliy qadriyatlari asosida rivojlanmoqda. Ichki turizmning muvaffaqiyatli rivoji uchun quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega: infratuzilmani rivojlantirish, qishloq va ekologik turizmni ommalashtirish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish. Davlat qo'llab-quvvatlovi, mahalliy aholi ishtirokini ta'minlash va turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish orqali ichki turizmni yanada jadal rivojlantirish mumkin. Bu nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki milliy madaniyatni saqlash va jamiyatda ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Shu sababli, ichki turizm O'zbekistonning barqaror rivojlanish strategiyasida muhim o'rin egallaydi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 y. PF "O'zbekiston-20230" strategiyasi to'g'risidagi farmoni.
2. Eshtaev A. O'zbekiston turizm salohiyatini va uni rivojlantirish istiqbollari
3. Erkabayeva Barno Abdurahimova "O'zbekistonfa tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlati".

⁴ . O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 y. PF "O'zbekiston-20230" strategiyasi to'g'risidagi farmoni.